

**MOTOR ALALIYA FONIDA GRAMMATIK KATEGORIYALARNI
O‘ZLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BAHOLASH**

Jamilova Dilnoza Muzaffar qizi,
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yo‘nalishi MSPD-IU talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18798693>

Annotatsiya. Ushbu maqolada motor alaliya holatidagi bolalarda nutqiy va til kompetensiyasining shakllanishi, grammatik kategoriyalarni o‘zlashtirishdagi buzilishlar va ularni aniqlash uchun taklif etilgan lingvistik tekshirish metodikalari tahlil qilingan. Motor alaliya bilan og‘rigan bolalarning til rivojlanishi neyrofiziologik, psixolingvistik va artikulyatsion omillar bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Grammatik kategoriyalarni (son, kelishik, fe‘l shakllari, joylashuvni bildiruvchi birliklar) tushunish va qo‘llashga qaratilgan topshiriqlar orqali bolaning til kompetensiyasi baholanishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Metodik yondashuv bola nutqining rivojlanish darajasini aniqlash, erta diagnostika qilish va individual rehabilitatsiya dasturlarini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: motor alaliya, nutqiy rivojlanish, til kompetensiyasi, grammatik kategoriyalar, diagnostika metodikasi, psixolingvistika, artikulyatsiya buzilishi, nozik motorika, til o‘rganish, rehabilitatsiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности формирования речевой и языковой компетенции у детей с моторной алалией, а также анализируются методики лингвистического обследования, направленные на выявление нарушений в освоении грамматических категорий. Обоснована связь речевого развития детей с моторной алалией с нейрофизиологическими, психолингвистическими и артикуляционными факторами. Показано, что использование заданий на понимание и употребление грамматических форм (число, падеж, глагольные формы, предлоги места) позволяет объективно оценить уровень языковой компетенции ребёнка. Методический подход имеет важное значение для диагностики, определения уровня речевого развития и разработки индивидуальных программ коррекции.

Ключевые слова: моторная алалия, речевое развитие, языковая компетенция, грамматические категории, диагностическая методика, психолингвистика, артикуляционные нарушения, тонкая моторика, освоение языка, реабилитация.

Abstract. This article explores the development of speech and language competence in children with motor alalia, focusing on the grammatical deficits and linguistic diagnostic methods designed to assess them. The study highlights the neurophysiological, psycholinguistic, and articulatory factors affecting language acquisition in such children. It demonstrates how specific tasks targeting the comprehension and usage of grammatical categories (plurality, case, verb forms, spatial prepositions) can reliably assess a child's language competence. The methodological approach is essential for early diagnosis, determining levels of speech development, and formulating individualized rehabilitation programs.

Keywords: motor alalia, speech development, language competence, grammatical categories, diagnostic method, psycholinguistics, articulatory disorders, fine motor skills, language acquisition, rehabilitation.

Kirish. Motor alaliya muammosi logopediya va neyropsixologiya fanlarida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshlagan. Xususan, A.R. Luriya tomonidan ishlab chiqilgan neyropsixologik konsepsiyaga ko‘ra, nutq faoliyati bosh miyaning bir necha funksional bloklari o‘zaro hamkorligida amalga oshadi. Motor

alaliyada aynan nutqni dasturlash, rejalashtirish va artikulyatsion harakatlarni ketma-ket tashkil etish bilan bog'liq mexanizmlar izdan chiqadi. Bu esa nutqning faqat fonetik tomonigina emas, balki grammatik va semantik tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy psixolingvistik qarashlarda motor alaliya til tizimining chuqur strukturaviy darajalaridagi buzilish sifatida talqin qilinadi. V.A. Kovshikov va Ye.F. Sobotovich ta'kidlashicha, bu holatda tilning belgi tizimini o'zlashtirish jarayoni izdan chiqadi: bola grammatik modellardan ongli ravishda foydalana olmaydi, morfologik shakllarni umumlashtirish va transfer qilish qobiliyati sust rivojlanadi. Natijada grammatik kategoriyalarni egallash jarayoni fragmentar, notizimli va uzoq muddatli bo'ladi.

Motor alaliyali bolalarda grammatik tizimning shakllanishi tipik rivojlanishdan sifat jihatidan farq qiladi. Normal ontogeneza da bola avval morfologik modellarni intuitiv ravishda egallaydi, keyinchalik esa ularni avtomatlashtiradi. Motor alaliyada esa bu jarayon buziladi: bola birlik–ko'plik munosabatlarini, kelishik qo'shimchalarini, fe'l zamon va shaxs-son kategoriyalarini barqaror qo'llay olmaydi. Grammatik shakllar ko'pincha situativ xarakterga ega bo'lib, umumlashtirish mexanizmi yetarli shakllanmaydi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motor alaliyada grammatik buzilishlar ko'pincha nozik motorika va artikulyatsion praksis rivojlanishidagi yetishmovchilik bilan korrelyatsiyada namoyon bo'ladi. Barmoq harakatlari va og'zaki motorikaning sustligi til birliklarini ketma-ketlik asosida tashkil etish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat nutqning ichki dasturlash mexanizmlarining yetarli shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda erta diagnostika va differensial baholash masalasi dolzarb hisoblanadi. Motor alaliyani dislaliya, dizartriya yoki umumiy nutq rivojlanishining sustligi bilan adashtirib yubormaslik uchun grammatik kompetensiyani maxsus topshiriqlar asosida tekshirish muhimdir. Aynan grammatik kategoriyalarni qo'llash va tushunishni ajratib baholash metodikasi bolaning nutqiy tizimidagi buzilish darajasini aniqlashga imkon beradi.

Shu bois motor alaliya fonida grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish jarayonini kompleks – neyrofiziologik, psixolingvistik va logopedik yondashuv asosida o'rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqat diagnostika aniqligini oshiradi, balki individual reabilitatsiya dasturlarini ilmiy asosda tuzish imkonini ham beradi.

Adabiyotlar tahlili. Motor alaliya — bu markaziy xarakterdagi organik buzilishlar natijasi hisoblanib, nosog'lom nevrologik ko'rinish nutqning rivojlanish borasida jiddiy orqada qolishga olib keladi. Bu konsepsiya tarafdorlari nutqiy shakllanmaganlikni motor yetishmovchiligi bilan tushuntiradilar (R. Koen, G. Gutsman, R.A.Belova-David, N.N. Traugott, V.K. Orfmskaya va boshqalar).

Bu muammoga zamonaviy psixolingvistik yondashish til konsepsiyasida aks ettirilgan Ye. F. Sobotovich, V. A. Kovshikov, B. M. Grinshpun, V.K. Vorobeva va h.k.

V.A. Kovshikov, bayon qilishning yuzaga kelishida birmuncha saqlangan ma'no va motor darajasida, tilning bayon qilish operatsiya larining shakllanmaganligi alaiyaning bu shakli uchun buzilishning markazi bo'lib hisoblanadi deb taxmin qiladi. Bu alaiyani asosan til buzilishlari sifatida izohlashga asos bo'ladi. Motor alaliyada ibora va matnlarni tuzish bo'yicha nutqiy harakatlarning shakllanmaganligi, so'z birikmasi, so'z tanlashning shakllanmaganligi bilan uyg'unlashgan ichki dasturlashning buzilishi ham kuzatiladi. Ye.F. Sobotovich (1985) fikriga ko'ra, motor alaliyada asosiy kamchilikni tilning belgi shaklini egallashdagi, ya'ni nutqning yuzaga kelish jarayonida belgilardan foydalanish va ularning mos kelishidagi buzilishlari tashkil etadi. Bolalarda nutqning yuzaga kelishida nutqiy materialni dasturlash, tanlash, tavsiflash operatsiyalari shakllanmaydi. Barcha leksik-grammatik qurilish aspektlarida kamchiliklar kuzatiladi: so'zni tanlash va uning ketma-ketligi, bayonning tovush tuzilishi va h.k. Bu esa psixofiziologik mexanizmlarning shakllanmaganligi sifatida xarakterlanadi. Alaliyali bolada til belgilari tizimini egallash imkoniyatining chegaralanganligi seziladi. Bayon qilishni yuzaga keltirish, bezatish operatsiyalari shakllanmagan bo'ladi, xususan, fonemalarni tanlash bilan bir qatorda ichki bo'g'inli va bo'g'inlararo dasturlash (ya'ni, artikulyator dastur) va chuqur-sintaktik va chuqur-semantik darajalarni amalga oshiruvchi operatsiyalar, ya'ni ichki nutq darajasi buziladi. Ishning neyrofiziologik jihati bosh miyaning substrata buzilishlarini nutqning shakllanmaganligi xarakteri bilan bog'liqligini tahlil qiladi. Ishning psixologik va lingvistik jihati nutqiy va umumiy psixologik funksiyalarning o'zaro munosabati, ya'ni kamchiliklarning namoyon bo'lishi tarkibida nutqiy faoliyatning holatini tahlil qiladi.

Alaliyada murakkab harakat differensiyarovkalari qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi, dinamik artikulatsion stereotik shakllanmaydi — tovushlarni to'g'ri yoki noto'g'ri takrorlaganda tovushlarning birikishi qiyinlashadi. A.R. Luriyaning ta'kidlashicha, alaliyada o'tgan artikulatsiya denervatsiyasida qiyinchiliklar va bir artikulatsiyadan ikkinchisiga silliq o'tishda qiyinchiliklar aniqlangan. Bu tovush va bo'g'inlar o'rnini o'zgarib qolishga, so'z tuzilishining soddalashishi va buzilishiga olib keladi. Alaliyali bolalarda nutq apparatining nozik harakat koordinatsiyalari shakllanmaydi. Nutq harakat analizatorining anomitik-sintetik buzilishlari turli ko'rinishlarga ega: oral apraksiya, ketma-ketlikning buzilishi va hokazo. Bunda kerakli artikulatsiya holatini izlash, ma'lum bir artikulatsiya harakatini bajara olmaslik, ketma-ketlikni egallashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu hollarda nutqiy artikulatsiya buzilishlarini belgilovchi harakat buzilishlari yetakchi o'rin egallaydi. Shuningdek, kinetik va kinestetik apraksiyalar oqibatida nutqning fonetik va fonema tik tomonlarida kamchiliklar kuzatiladi. Nutq apparatidan bosh miya po'stlog'iga boruvchi kinestetik impulslar bilan bog'liq artikulatsiya harakatlari normal sharoitda tovush tahlili va tavsifi jarayonida muhim o'rin egallab, so'zning tovush tarkibini aniqlash, kerakli tovush ketmaketligini saqlashga yordam beradi. Alaliyada esa bola so'zning kerakli tovush ketma-ketligini aniqlashga qiynaladi, bir so'zni ikkinchi bir so'z bilan almashtira olmaydi. Bu esa parafaziyaning ko'payishiga, asosiy sabab

jarayonlarining harakatchanligining buzilishlaridan dalolat beruvi kamchiliklar, ya'ni perseveratsiya va h.k. qo'zg'alish va tormozlanish o'chog'laridagi kamchiliklarga olib keladi. Buning natijasida esa, bolada eshitish va nutqni tushunish yetarliligi saqlangan holda, nutqni mustaqil rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi artikulyatsiya muskulaturasining parez va lab paralichlari kuzatilmaganda, nutq mustaqil ravishda rivojlanmaydi, uzoq vaqtgacha u ayrim tovushlar talaffuzi bilan cheklanadi. Miya po'stlog'i rivojlanmaganligi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, nutq funksiyalarining shakllanmaganligi shunchalik chuqur va qo'pol bo'ladi. Artikulyatsion praksis buzilishlari va nutqiy harakatlarning orasida bevosita aloqa mavjudligi kuzatilgan, binobarin bir tomondan nutqning fonetik tizimi, ikki tomondan nutqni tushunish, idrok qilish. Alaliyada mayda artikulyatsion harakatlarning buzilishi, nutq harakat analizatori miya tomoni tonusining pasayishiga olib keladi, buning natijasida zaif va nozik kinestetik impulslarni idrok qilish qiyinlashadi va hatto butunlay cheklanadi. Po'stloq tomonidan faqat birmuncha yirik kinesteziyalar qabul qilinadi va tahlil qilinadi. Buning natijasida, motor alaliyada, gohida o'ziga qaratilgan nutqni yetarli idrok qilolmaslik, grammatik shakllar va keng yozilgan matnni tushunishni sekinlashuvi va qiyinlashuvi kuzatiladi. N.N. Traugott ma'lumotiga ko'ra, motor alaliyali 70% bolalar o'ziga qaratilgan nutqni to'la tushunadilar, 20% bolalarda tushunish biroz pasaygan va 10% bolalar yomon tushunadilar, biroq bunday hollarda bolalarning o'z nutqi har doim tushunishiga qaraganda yomonroq bo'ladi.

Metodologiya. Tadqiqotda motor alaliyali bolalarda grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida kompleks psixolingvistik va logopedik yondashuv qo'llanildi. Nazariy bosqichda muammo bo'yicha ilmiy manbalar, jumladan A.R. Luriya, V.A. Kovshikov va Ye.F. Sobotovich qarashlari tahlil qilindi.

Empirik bosqichda rasmiy materiallar asosida tuzilgan maxsus topshiriqlar yordamida bolalarning birlik–ko'plik, kelishik, fe'l shakllari va joylashuvni bildiruvchi birliklarni qo'llash hamda tushunish darajasi tekshirildi. Natijalar ballik mezon asosida baholanib, miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Motor alaliya fonida senso-motor rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u bolaning umumiy psixofiziologik va nutqiy shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarda tashqi muhitdan keladigan tovush, teginish va harakatga oid signallarni idrok qilish jarayoni sekinlashgan bo'ladi. Vizual va audiomotor muvofiqlik yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, ular ko'rsatma asosida topshiriq bajarishda noaniqlik va chalkashliklarga yo'l qo'yadilar. Harakatlar ketma-ketligini tushunish va qayta tiklashda qiyinchiliklar kuzatiladi, bu esa nutqiy dasturlash mexanizmlarining sust rivojlanganligini ko'rsatadi.

Motor rivojlanish jihatidan ham sezilarli kamchiliklar namoyon bo'ladi. Nozik motorika, xususan barmoqlar harakati yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu yozuv va artikulyatsion harakatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yirik motorikada yugurish, sakrash va umumiy muvofiqlashtirish jarayonlarida muammolar uchraydi. Ayniqsa, og'zaki motorika

– lab, til va jag‘ harakatlarining sustligi tovushlarni aniq talaffuz qilishni qiyinlashtiradi va fonetik buzilishlarga olib keladi.

Motor alaliya sharoitida og‘zaki nutq rivojlanishi bosqichma-bosqich, biroq sekin va notekis kechadi. Dastlab nutqsizlik yoki mutizmga yaqin holat kuzatilib, bola nutqni tushunsa-da, mustaqil gapira olmaydi. Keyingi bosqichda prednutq fazasi namoyon bo‘lib, bola imloviy tovushlar, mimika va imo-ishoralalar orqali muloqot qilishga urinadi. Oddiy so‘zlar paydo bo‘la boshlaganda esa ular grammatik jihatdan buzilgan va fonetik jihatdan soddalashtirilgan shaklda bo‘ladi. Frazali nutq bosqichida gaplar qisqa, strukturaviy jihatdan noto‘g‘ri, fe‘l shakllari va so‘z tartibi buzilgan holda qo‘llaniladi. Faqat muntazam logopedik va psixologik yordam natijasida nutq asta-sekin faollashadi va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishga yo‘naladi.

Shu bois motor alaliyali bolalarda lingvistik rivojlanishni aniqlash va baholash uchun maxsus diagnostik metodikalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodikalar bolaning grammatik kategoriyalarni qo‘llash va tushunish darajasini aniqlashga, nutqiy kamchiliklarning xarakterini belgilashga hamda individual tuzatish-reabilitatsiya dasturini ishlab chiqishga imkon beradi. Amaliyotda qo‘llashga qulay va ilmiy asoslangan ushbu tekshirish usullari logoped va o‘qituvchilar uchun ishonchli diagnostik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1-topshiriq. Bosh kelishikda ko‘plik sondagi otlarning qo‘llanilishi va ularni tushunish.

Topshiriq 1.1. Qo‘llanilishni o‘rganish: “Qarab ko‘rchi”

Ko‘rsatma: “Qarab, ayting-chi, bu nima? Mana bunisi-chi?”

“Bu it, bular esa ... Itlar.”

Qo‘shimcha materiallar: predmetli rasmlar kartochkalar: it - itlar, kubik - kubiklar, shar - sharlar, poyabzal - poyabzallar, to‘p - to‘plar, oyoq - oyoqlar, ko‘ylak - ko‘ylaklar, ari - arilar, xat - xatlar, uy - uylar, deraza - derazalar, temir - temirlar.

Topshiriq 1.2. “Birlik - ko‘plik” tushunchalarini tushunishni o‘rganish.

Ko‘rsatma: “Men narsalarning nomini aytaman, sen esa ularni ko‘rsatasan”.

Bolaga rasmda ko‘rsatilgan predmetlarni ko‘rsatish taklif qilinadi. Amallarni bajarishda ko‘plik va birlik sonlarining almashtirib so‘ralishi juda muhimdir.

Qo‘shimcha materiallar: predmetli rasmlar kartochkalar: it - itlar, kubik - kubiklar, shar - sharlar, botinka - botinkalar, to‘p - to‘plar, oyoq - oyoqlar, xalat - xalatlar, ari - arilar, xat - xatlar, uy - uylar, deraza - derazalar, po‘lat - po‘latlar.

2-topshiriq. Fe‘lning ko‘plik shaklini qo‘llash va tushunish;

Topshiriq 2.1. Qo‘llanilishni o‘rganish: “Gapni yakunla”.

Ko‘rsatma: “Men gapni boshlayman, sen esa uni yakunlaysan. Misol uchun, “Qiz turibdi, bolalar turishibdi”.

Qo‘shimcha material: predmetli rasmlar kartochkalar.

Yuguryapti - yugurishyapti, tortyapti - tortishyapti, ketyapti - ketishyapti, yotibdi - yotishibdi, ushlab turibdi - ushlab turishibdi, o'tiribdi - o'tirishibdi, yasayapti - yasashyapti, yuvyapti - yuvishyapti, o'qiyapti - o'qishyapti, kuylayapti - kuylashyapti, o'ynayapti - o'ynashyapti.

Topshiriq 2.2. Tushunishni o'rganish: *“Taxmin qil”*.

Ko'rsatma: Bola bilan birgalikda syujetli rasmni ko'rib chiqib, bolaga rasmning qaysi biri mavzuga mos kelishini ko'rsatish taklif etiladi. Bu topshiriqda mazmuni yaqinlashtirib chalg'itish muhim hisoblanadi. *“Hozir men senga mana bu rasmlardan biri haqida gapiraman, sen esa gap qaysi rasm haqida ketayotganini taxmin qilib, uni ko'rsatasan”*.

Qo'shimcha materiallar: Ushbu topshiriqda foydalanishni o'rganishda qo'llanilgan qo'shimcha materiallardan foydalaniladi.

3-topshiriq. Birlikdagi otlarning hol kategoriyasi shaklini qo'llash va tushunish: *“Top”*.

Ko'rsatma: Topshiriqni bajarishda, tajriba o'tkazuvchi bolaga rasmga mos keladigan gapni boshlab beradi, bola esa gapni tugatib, oxirgi so'zni aytilishi kerak bo'ladi. Bola ushbu topshiriqni to'g'ri bajarishi uchun avvaliga unga topshiriq jarayoni tushuntirib beriladi. Misol uchun: *“Keling, birgalikda mana bunday o'yin o'ynaymiz. Rasmlarni ko'rib, ularda nima tasvirlanganini taxmin qilamiz. Men gapni boshlayman, sen esa uni tugatib qo'lasan. Men: “Stolning ustida ...?” - Deyman. Sen esa “olma” - deb aytasan.*

Topshiriq jarayonini tushunganlik darajasini tekshirish uchun 1 - 2 ta qo'shimcha rasm taklif qilinadi. Ba'zi rasmlarni ko'rsatishda vaziyatni qo'shimcha tushuntirish va savollar berish talab qilinadi. Masalan: *“Ayting-chi, qizcha ko'ylagini nima bilan dazmollayapti? Qizcha ko'ylagini “dazmol bilan” dazmollayapti. “Bu rasmda qo'ng'iz va gullar bor. Mana bu rasmda esa “qo'ng'iz” yo'q”*.

Qo'shimcha materiallar: Quyidagi ma'nolarni o'z ichiga olgan rasmlari kartochkalar:

Tushum kelishigi:

Kimni sinfi musobaqada qatnashdi? (Saidni) Qiz nimani rasmini chizdi? (Itni)

Qaratqich kelishigi:

Stulning nimasi yo'q? (Oyog'i) Nima yo'q? (Qo'ng'iz)

Nimaning xartumi bor? (Filning)

Nimaning dumi pahmoq? (Tulkining)

Jo'nalish kelishigi:

Bola kimga ovqat beryapti? (Itga) o'qituvchi kimga besh baho qo'ydi? (Go'zalga)

O'rin-payt kelishigi:

Mening daftaram kimda? (Dugonamda)

Bola qayerda dars qildi? (Maktabda)

Chiqish kelishigi:

U bola nimadan qo'rqadi? (Itidan) U daftarni kimdan oldi? (Boburdan)

Birinchi topshiriqning vazifalari uchun baholash:

Har bir topshiriq ikkita mezon bo'yicha alohida baholanadi:

1. Grammatik kategoriyalarni qo'llash: 3 ball - to'g'ri shakl;

2 ball - o'zining xatosini to'g'rilash yoki rag'batlantiruvchi yordamdan keyingi tuzatish;

1 ball - tildagi mavjud shakl, ammo berilgan kontekstdan foydalanilmagan yoki so'zning bo'g'in tuzilishi noto'g'ri;

0 ball - so'zning noto'g'ri shakli (yoki qo'shimcha yo'qligi) yoki nomlay olmaslik.

Grammatik kategoriyalarni tushunish: 3 ball - aniq tushunish; 2 ball - qaytadan so'rash, o'zining xatosini to'g'rilash; 1 ball - to'g'ri rasmni topish uchun uzoq vaqt qidirish; 0 ball - rasmni noto'g'ri tanlash.

Ushbu topshiriq uchun maksimal ball - 36 ball.

Bu topshiriq so'z yasash jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, qo'shimchalar va prefikslar yordamida tuzilgan yangi so'zlarni qo'llash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uchta vazifani o'z ichiga oladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iborat:

Hayvonlar va qushlarning bolalarining nomlaridan foydalanish va tushunish (2 ta vazifa);

Otlarni kichraytirish va erkalash shaklda qo'llash va tushunish (2 ta vazifa);

Prefiksli fe'llardan foydalanish va tushunish (2 ta vazifa).

Tajribani boshlashdan oldin, bola belgilashi kerak bo'lgan narsalarni bilishiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun avvalo bolaning oldiga rasmlarni qo'ying, kerakli obyektning nomlang va bola uni ko'rsatishi kerak. Agar bola obyektning nomi yoki obyektning nomlanishini bilmasa, uni tushuntirish va tushunganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Topshiriq. Hayvonlar va qushlarning bolalarining nomlarini farqlay olish.

Vazifa 1.1. Qo'llanilishini o'rganish: "Hayvonlarning bolalari"

Ko'rsatma: Bolaga hayvonlarning bolalarini nomlash taklif qilinadi. "Mushukniki - mushukcha, unda itning bolasi qanday ataladi - ... kuchukchami?"

Qo'shimcha material: Tasvirli kartochkalar: sigir - buzoq, tulki - tulkicha, mushuk - mushukcha, it - kuchuk, tovuq - jo'ja, eshak - xo'tik, tuya - bo'ta.

Vazifa 1.2. Tushunganlikni o'rganish: "Ko'rsat-chi qaysi ...?"

Ko'rsatma: Bolaga uy hayvonlari va ularning bolalarining rasmlarini ko'rsatish taklif etiladi. Bu jarayonda hayvonlarning kattalari va kichiklarini almashtirib nomlash muhim hisoblanadi. Masalan "Menga mushukning qayerdaligini va mushukchanning qayerdaligini ko'rsating ...", "Tovuq qaysi va jo'janing qaysiligini ko'rsating".

Qo'shimcha material: Foydalanishni o'rganish jarayonidagi kabi bir xil rasmlar qo'llaniladi.

Topshiriq. Otlarning kichraytirish-erkalash haklida qo'llanilishi va tushunilishi.

Vazifa 2.1. Qo'llanilishni o'rganish: "Katta – kichik". Ko'rsatma: Boladan kichik predmetni nomlash so'raladi. "Bu katta narsa - to'p, uning kichik varianti koptok bo'ladi. Men katta narsaning nomini aytaman, siz esa unga mos keladigan kichik narsani aytasiz".

Qo'shimcha material: rasmi kartochkalar: uy - uycha, to'p - koptok, daraxt - nihol, limon - limoncha, piyola - piyolacha.

Vazifa 2.2. Tushunishni o'rganish: "Katta-kichik-katta"

Ko'rsatma: Bolaga narsalarni ko'rsatish taklif qilinadi. Tajriba jarayonida kichik va katta narsalarning o'zaro almashtirib ko'rsatishga e'tibor qaratish muhimdir. "Katta uyni ko'rsat, kichik uyhani qaysiligini ko'rsat...", "Sumkani ko'rsat, sumkachani ko'rsat..."

Qo'shimcha material: Foydalanishni o'rganish jarayonidagi kabi bir xil rasmlar qo'llaniladi.

Topshiriq. Prefiksli fe'llarni qo'llash va tushunish.

Vazifa 3.1. Foydalanishni o'rganish: "Idrok qil"

Ko'rsatma: tadqiqot boshida ishtirokchiga topshiriq mazmuni haqida yo'naltiruvchi tushuncha beriladi. Bolaga bir juft rasm taklif etiladi, masalan: "Qushcha qafasga yaqinlashmoqda" va "Qushcha qafasdan uzoqlashmoqda". Tadqiqotchui avval birinchi rasmlarni ko'rsatib, quyidagi gapni aytadi: "Qushcha qafasga yaqinlashmoqda (yaqin kelmoqda)." So'ngra ikkinchi rasmni ko'rsatadi: "Bu rasmda esa, aksincha, qushcha qafasdan uzoqlashmoqda (uzoqlashib ketmoqda)". Shundan so'ng, bolaning o'zidan fikr bildirish so'raladi: "Endi esa, sen o'zing biror narsaga yaqinlashish va undan uzoqlashishni ifodalovchi so'zlarni o'ylab topishga harakat qil". Keyin navbatdagi rasmlar taqdim etiladi va bolaning rasm mazmuniga mos jummalarni mustaqil ravishda davom ettirishi so'raladi. Agar bola qiynalsa, unga avvalgi so'z yasash namunasi qayta eslatib ketiladi.

Bu qush uchdi, uchdi, uchdi va qafasga uchib kirdi, ana unisi esa, aksincha, qafasdan... Uchib chiqib ketdi.

Bu bola yurdi, yurdi, yurdi va uyga kirdi, ana unisi esa, aksincha, uydan...chiqib ketdi.

Bu bola suvni stakanga quydi, quydi, quydi va to'ldirdi, ana unisi esa, aksincha, stakandan suvni... To'kdi.

Bu bola daraxtga tomon yurdi, yurdi, yurdi va yaqinlashdi, ana unisi esa, aksincha, daraxtdan... Uzoqlashdi.

Bu avtobus yurib, yurib, bekatga yetib keldi, ana unisi esa...bekatdan uzoqlashdi.

Bu qush uchdi, uchdi, uchdi va qafasdan uzoqlashdi, bu qush esa qafasga...yaqinlashdi

Bu qayiq suzib, suzib, suzib, qirg'oqqa yetib keldi, ana u qayiq esa, aksincha, qirg'oqdan...uzoqlashdi.

Mashina yurdi, yurdi, yurdi va svetoforga yaqinlashdi, bola esa tepalikdan...uzoqlashdi.

Bu mushuk tirmashib, tirmashib, tirmashib, daraxtga chiqdi, ana unisi esa aksincha, daraxtdan...tushdi.

Qo'shimcha material: ko'rsatmalarda tasvirlangan vaziyatlarni tasvirlaydigan rasmlar.

Vazifa 3.2. Tushunishni tekshirish: "Ko'rsat"

Ko'rsatma: Bolaga ikkita rasm ko'rsatiladi, masalan: "Qushcha qafasga yaqinlashmoqda" va "Qushcha qafasdan uzoqlashmoqda". Tadqiqotni olib boruvchi boladan so'raydi: "Qaysi rasmda qushcha qafasdan uchib ketmoqda?" "Qaysi rasmda qushcha qafasga yaqinlashmoqda?"

Qo'shimcha material: ushbu bosqichda, so'zlarni qo'llashni o'rganish bo'yicha tadqiqotda ishlatilgan rasmlar aynan shu tarzda yana qo'llaniladi.

II-topshiriq namunalarini baholash ikki mezon asosida amalga oshiriladi:

Grammatik kategoriyalarni qo'llay olish:

3 ball - grammatik shakl to'g'ri qo'llangan;

2 ball - bola xatoni o'zi to'g'rilagan yoki qo'shimcha yordamdan so'ng tuzatgan;

1 ball - til tizimida mavjud, biroq ayni kontekstga mos bo'lmagan shakl qo'llangan;

0 ball - grammatik shakl noto'g'ri yoki bola javob berishdan bosh tortgan.

Grammatik kategoriyalarni tushunishni baholash:

3 ball - grammatik ma'noni aniq va to'g'ri tushungan;

2 ball - savolni qayta so'ragan yoki o'z xatosini tuzatgan;

1 ball - rasm mazmunini tahlil qilishda ancha vaqt sarflagan, lekin yakunda to'g'ri tanlov qilgan;

0 ball - rasmni noto'g'ri tanlagan (noto'g'ri grammatik anglash yoki tushunmovchilik). Ushbu topshiriq bo'yicha maksimal ball - 36 ball.

III-topshiriq. Bu topshiriqning prinsipi bolalarning -da, ichida, ustida, tagida, orqasida, -dan kabi ma'nolarni tushunish va qo'llashni o'rganishga qaratilgan. Bu jarayon predmetlar bilan manipulyatsiya qilishda va fe'llarni qo'llashdagi tushunchalarni aniqlashga yordam beradi. Tushunishga asoslangan topshiriqlarda bola "qayerda", "qayerga", "nimaning ustida" kabi savollarga javob berishi so'raladi, bu savollar ko'makchi so'z qo'llashni anglatadi. Bola tushunishni baholash mashqida, qo'shimcha va bog'lovchilarni o'z ichiga olgan ko'rsatmalarni bajaradi.

Ko'rsatma: Bolaga namoyish etilayotgan harakatlarga asoslangan savollarga javob berish taklif etiladi.

Quti qayerda turibdi? (Stolda) o'yinchoq qayerda yotibdi? (Qutida) Men o'yinchoqni qayerdan olib chiqyapman? (Qutidan) Qutini qayerga qo'ydim? (Stolning ostiga) Quyon qayerda turibdi? (Qutining orqasida) Kapalak nimaning ustida uchib yuribdi? (Gullar ustida)

Jarayonni tushunishni o'rganish uchun bolaga bir nechta harakatni bajarish taklif etiladi:

Quyinni qutiga yashir. Quyinni qutidan olib chiq. Quyinni quti ustiga chiqar. Quyinni quti orqasiga yashir. Quyinni stol ostiga qo'y.

III-topshiriqni baholash:

1. Grammatik kategoriyalarni qo'llash:

3 ball - to'g'ri shakl qo'llangan;

2 ball - xatoni o'zi to'g'rilagan yoki qo'shimcha yordamdan so'ng to'g'rilangan;

1 ball - til tizimida mavjud shakl qo'llanilgan, lekin ayni kontekstga mos kelmagan;

0 ball - noto'g'ri shakl qo'llangan yoki bola javob berishdan bosh tortgan.

2. Grammatik kategoriyalarni tushunish:

3 ball - grammatik tushuncha aniq va to'g'ri tushungan;

2 ball - savolni qayta so'rash yoki o'zini o'zi tuzatish;

1 ball - rasmni tanlashda ancha vaqt sarflagan, lekin to'g'ri natijaga erishgan;

0 ball - rasmni noto'g'ri tanlagan.

Metodikaning afzalliklari:

Ko'p tomonlama baholash: Tilning morfologik jihatlari bo'yicha turli ko'nikmalarni o'z ichiga olgan.

Tushunish va ifoda qilishni ajratgan: Bola grammatik shaklni tushunadimi yoki faqat takrorlayaptimi – bu farq aniqlanadi.

Vizual materiallar yordamida tekshiruv: Diqqat, idrok va tushunchani sinovdan o'tkazadi.

So'z yasashga urg'u berilgan: Bu bolaning leksik o'sishini va tilda ijodiy yondashuvini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot motor alaliyali bolalarning til tizimidagi grammatik shakllarni qo'llash va tushunish darajasini aniqlash, ularning so'z yasash ko'nikmalari va morfologik kompetensiyasini baholashga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy psixolingvistik, neyropsixologik va logopedik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodik diagnostika vositalaridan foydalanishni taklif etadi.

O'tkazilgan tekshiruvlar natijalari shuni ko'rsatadiki, motor alaliyali bolalar nutqiy ifodaning barcha komponentlarida, xususan, leksik-semantik, grammatik va fonetik jihatdan sezilarli darajada orqada qoladi. Ularning grammatik kategoriyalarni qo'llashda xatolikka yo'l qo'yishi, hol va son kabi morfologik birliklarni ajratishda qiyinchiliklar, predikativ gaplarni tuzishda strukturaviy va semantik buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Ayniqsa, artikulyatsion praksisning yetarli darajada shakllanmaganligi fonida ichki nutq darajasidagi harakat dasturlarining buzilishi kuzatiladi. Ushbu buzilishlar esa bola til tizimining fonetik-fonologik va grammatik darajalarini yetarlicha egallay olmasligiga sabab bo'ladi. Taklif etilgan topshiriqlar tizimi esa bolaning grammatik shakllarni faollikda (ifoda qilish) va reseptivlikda (tushunish) o'zlashtirish darajasini baholash imkonini beradi. So'z yasash, birlik-ko'plik, hol kategoriyasi, fe'l shakllari va predlogli konstruksiyalar kabi turli grammatik birliklarning qo'llanilish va idrok qilinish darajasini

mezon asosida aniqlash imkoniyati taqdim etilgan. Shu bilan birga, metodikaning ko‘p komponentli va vizual ko‘makka asoslanganligi uni amaliyotchi logopedlar, defektologlar va o‘qituvchilar uchun diagnostik jihatdan qulay va ishonchli vositaga aylantiradi. Shu asosda, ushbu ilmiy-amaliy izlanish motor alaliya bilan og‘rigan bolalarning til rivojlanishini aniq, tizimli va ko‘p qirrali tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotda qo‘llanilgan diagnostik vositalar bolaning lingvistik salohiyatini chuqur o‘rganish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish va tuzatish-reabilitatsion ishlarni rejalashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Логопедия (под. ред. Проф. Л.С. Волковой). - М., 2003.
2. Ляпидевский С.С. Невропатология. - М., 2001.
3. Краузе Е.Н. Логопедия. - М., 2003.
4. Логопедия (под. ред. Л.С. Волковой). — М., 2002.
5. Логопедия (Л. МРминова., М. Аюпова). — Т., 1993.
6. Ляпидевский С.С. Невропатология. — М., 2001.
7. Поваляева М.А. Справочник логопеда. — М., 2002.
8. Хрестоматия по логопедия. Т.1, (под ред. Л.С. Волковой, В.И. Селиверстов). — М., 1997.
9. Филичева Т.Б. и др. Дети с фонетическим недоразвитием Изд-во ГНОМ и Д. - М., 2000.
10. Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы ее преодоления. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. 12-с.
11. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Jalolova Z.M., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 157-b.
12. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019, – 560 b.
13. Shomaxmudova R. Sh. Mo‘minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
14. Shomahmudova R. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2013. – 130 b.
15. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2018. – 432 b.